MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026
1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

FARG‘ONA VODIYSI (QO‘QON SHAHRI) OILAVIY MAROSIMLARI TIZIMIDA “KUYOV CHIQDI” MAROSIMINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Oygul Axmedova,
Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
professori, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Maqolada Farg‘ona vodiysi, xususan, Qo‘qon shahri oilaviy marosimlar tizimida shakllangan “Kuyov chiqdi” marosimining o‘ziga xos etnografik va folkloriy xususiyatlari tahlil qilinadi. Marosimning nikoh to‘yidan uch kun o‘tib o‘tkazilishi, uch kunlik chimildiq davri, kuyovning ommaga birinchi marta ochiq ko‘rinishi, “kuyov tanishuv”, “yuz ochdi”, “un elash”, “o‘choq boshi” va “kelin salom” kabi udumlar bilan uzviy bog‘liqligi uning murakkab marosimiy tizim ekanini ko‘rsatadi. Maqolada mazkur marosimdagi sovg‘a-salom, gilam, meva daraxti shoxi, paxta, un, supra, yog‘, o‘choq kabi predmet va harakatlarning ramziy-ma’noviy mazmuni ochib beriladi. Shuningdek, “Kuyov chiqdi’ marosimi o‘zbeklarning tug‘ilish, nikoh va motam marosimlarida kuzatiladigan himoyaviy, baraka tilash, ko‘payish va yangi bosqichga o‘tish kabi arxaik tasavvurlar bilan qiyoslanadi. Marosimning Qo‘qon shahriga xos lokal xususiyatlari uni Farg‘ona vodiysi oilaviy marosimlarining muhim etnomadaniy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon, oilaviy marosimlar, nikoh to‘yi, “Kuyov chiqdi”, chimildiq, “kuyov tanishuv”, “yuz ochdi’, ‘un elash’, o‘choq, supra, magik tasavvur, ramz, an’ana, folklor.*

Аннотация: *В статье анализируются этнографические и фольклорные особенности обряда "Зять вышел," сформировавшегося в системе семейных обрядов Ферганской долины, в частности, города Коканда. Тот факт, что церемония проводится через три дня после свадьбы, трехдневный период чимилдик, первое открытое появление жениха на публике, неразрывная связь с такими обычаями, как "зять знакомится" "лицо открылось", "сеять муку", "очаг" и "приветствие невесты" показывает, что это сложная обрядовая система. В статье раскрывается символико-смысловое содержание таких предметов и действий, как подарки, ковер, ветка фруктового дерева, хлопок, мука, супра, масло, очаг в данной церемонии. Также ритуал "Зять вышел" сравнивается с такими архаическими представлениями, как защита, желание благополучия, размножение и переход на новый этап, наблюдаемыми в узбекских обрядах рождения, бракосочетания и траура. Локальные особенности обряда, характерные для Коканда, позволяют оценить его как один из важных этнокультурных показателей семейных обрядов Ферганской долины.*

Abstract: *This article analyzes the distinctive ethnographic and folkloric features of the “Kuyov chiqdi” (“The Groom Comes Out”) ceremony that has developed within the system of family rituals in the Fergana Valley, particularly in the city of Kokand. The fact that the ceremony is held three days after the wedding, following a three-day period of chimildiq (the newlyweds’ seclusion behind the wedding curtain), as well as the groom’s first public appearance and its close connection with such customs as “kuyov tanishuv” (introduction of the groom), “yuz ochdi” (face unveiling), “un elash” (sifting flour), “o‘choq boshi” (the hearth ritual), and “kelin salom” (the bride’s ceremonial greeting), demonstrates that it constitutes a complex ritual system. The article examines*

the symbolic and semantic meanings of such objects and ritual actions as gifts, carpets, branches of fruit trees, cotton, flour, supra (a traditional cloth or mat used for preparing and serving food), oil, and the hearth. The ceremony is also compared with archaic beliefs observed in Uzbek birth, wedding, and mourning rituals, including notions of protection, the invocation of prosperity and abundance, fertility, multiplication, and transition to a new stage of life. The localized features of the "Kuyov chiqdi" ceremony characteristic of Kokand allow it to be regarded as one of the important ethnocultural indicators of family rituals in the Fergana Valley.

Keywords: *Kokand, family rituals, wedding ceremony, "Kuyov chiqdi" ("The Groom Comes Out"), chimildiq, "kuyov tanishuv" (introduction of the groom), "yuz ochdi" (face unveiling), "un elash" (sifting flour), hearth, supra, magical beliefs, symbol, tradition, folklore.*

Inson hayotining eng muhim bosqichlari - dunyoga kelishi, oila qurishi va vafoti xalqning an'anaviy madaniyatida turli marosimlar orqali ifodalangan. Bu marosimlar muayyan ijtimoiy voqeani qayd etish bilan cheklanib qolmay, xalqning dunyoqarashi, e'tiqodiy qarashlari, hayotiy tajribasi, axloqiy me'yorlari va kelajak haqidagi ezgu niyatlarini ham o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbek xalqining oilaviy marosimlari tizimida nikoh to'yi alohida o'rin tutadi. Nikoh marosimlari tarkibiga sovchilik, fotiha yoki "non sindirish", sep taxlash, qiz oshi, to'qqiz berish, kelin tushirish, "yuz ochdi", "kelin salom" kabi ko'plab udumlar kiradi. Ularning har biri nikoh jarayonining muayyan bosqichini ifodalash bilan birga, yangi oilaga baraka, totuvlik, serfarzandlik, rizq-ro'z va baxt tilash kabi g'oyalarning ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan Qo'qon shahri oilaviy marosimlari tarkibida uchraydigan "Kuyov chiqdi" marosimi alohida e'tiborga loyiq. Mazkur marosimning nikoh to'yidan uch kun o'tib o'tkazilishi, kuyovning uch kunlik chimildiq davridan keyin birinchi marta yuzini ochib, jamoat oldiga chiqishi hamda shu jarayonda "kuyov tanishuv", "yuz ochdi", "un elash", "o'choqqa yog' quyish", "kelin salom" kabi bir nechta udumlarning bir tizimga birlashishi uni murakkab sinkretik marosim sifatida baholash imkonini beradi.

An'anaviy o'zbek madaniyatida nikoh to'yi ikki yoshning oila qurishini jamoatchilik tomonidan e'tirof etishning muhim shakli hisoblangan. Shu bois nikoh marosimlaridagi har bir bosqich yoshlarning shaxsiy hayoti bilan bir qatorda, ularning yangi ijtimoiy maqomga o'tishini ham anglatgan.

Masalan, fotiha qilishda "non sindirish" udumining bajarilishi kelin va kuyovning nonday aziz, qadrli va bir-biriga munosib bo'lishini tilash bilan bog'langan. Nonning juft sindirilishi esa ularning qo'sha qarishi haqidagi magik orzu-istakni ifodalagan. "Yuz ochdi" marosimida kelin yuzining ochilishi ham ramziy ma'noda uning yangi oila va yangi ijtimoiy muhitga kirib kelishini anglatadi.

"Kuyov chiqdi" marosimi esa ushbu jarayonning ikkinchi tomoni - kuyovning ham yangi oilaviy-ijtimoiy maqomini jamoa oldida namoyon etishi bilan xarakterlanadi.

Bu jihatdan marosim nomining o'zi muhim semantik yuklamaga ega. «Kuyov chiqdi» degan nom faqat jismoniy harakat - xonadan tashqariga chiqishni emas, balki yopiq makondan ochiq ijtimoiy makonga o'tish, maxfiy nikohiy bosqichdan jamoaviy tan olingan oilaviy bosqichga o'tish jarayonini anglatadi.

Dala materiallariga ko‘ra, “Kuyov chiqdi” marosimi Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahriga xos marosimlardan biri bo‘lib, nikoh to‘yidan uch kun o‘tib o‘tkaziladi. Unda kuyovning yaqin qarindoshlari, qo‘ni-qo‘shnilari, do‘stlari hamda kelin tomondan tashrif buyurgan yaqinlar ishtirok etadi.

Marosimning asosiy maqsadlaridan biri yangi turmush qurgan yoshlarni yo‘qlash, ularni tabriklash va ikki oila o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini mustahkamlashdan iborat. Kelin tomondan kelgan mehmonlarning qo‘llarida kuyovga atalgan “ko‘rmana”, ya’ni sovg‘alarning bo‘lishi ham marosimning ijtimoiy-kommunikativ vazifasini ko‘rsatadi.

Demak, “Kuyov chiqdi”ni faqat nikoh to‘yidan keyingi kichik yig‘in sifatida baholash biroz tor yondashuv bo‘ladi. Unda:

- ikki qarindoshlik guruhining bir-birini qabul qilishi;
- kuyovning yangi oila a’zosi sifatida tan olinishi;
- kelinning yangi xonadondagi maqomining mustahkamlanishi;
- yangi oilaning barakasi va farovonligiga tilak bildirish;
- jamoaviy muloqot va sovg‘a almashish kabi bir nechta ijtimoiy-madaniy funksiyalar mujassamlashgan.

“Kuyov chiqdi” marosimini anglashda uch kunlik chimildiq davri muhim ahamiyatga ega. Nikohdan keyin kelin va kuyov uch kun davomida chimildiqda bo‘lib, tashqariga chiqmaydi, jamoat oldida ko‘rinmaydi. Zarur holatda tashqariga chiqilganda ham kuyov to‘n bilan yuzini berkitib chiqqan.

Bu holatni an’anaviy dunyoqarashdagi “ichki – tashqi”, “yopiq – ochiq”, “eski maqom - yangi maqom” qarama-qarshiligi asosida talqin qilish mumkin.

Inson hayotining muhim bosqichlarida vaqtincha ajratish va keyin qayta jamoaga kiritish motivi ko‘plab marosimlarda kuzatiladi. Masalan, tug‘ilish marosimlarida ham chaqaloq ma’lum muddat turli xavflardan himoyalangan holda saqlangan; motam marosimlarida esa marhumning hayot dunyosi bilan aloqasi ramziy jihatdan uzilgan. Nikohdagi chimildiq ham shunga o‘xshash o‘tish holati, ya’ni liminal bosqich sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda “Kuyov chiqdi” marosimi uch kunlik o‘tish davrining yakunlanishi va kuyovning jamoaviy hayotga qayta kirishini ifodalaydi.

Kuyov tashqariga chiqqanidan keyin uning kelin tomon qarindoshlari bilan “kuyov tanishuv” marosimi o‘tkaziladi. Bu odatning asosiy mohiyati kuyovni kelinning yaqinlari bilan rasman tanishtirish, ular o‘rtasida muloqot va qarindoshlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Shu bilan birga, bu marosimda kuyovning yangi ijtimoiy maqomi jamoa tomonidan tasdiqlanadi. Nikohdan oldin u bir oilaning farzandi bo‘lgan bo‘lsa, nikohdan keyin boshqa bir oilaning kuyovi, yangi qarindoshlik tizimining a’zosiga aylanadi.

Shu jihatdan “kuyov tanishuv»ni ijtimoiy identifikatsiya marosimi sifatida baholash mumkin.

“Kuyov chiqdi” marosimida “yuz ochdi” udumining ham bajarilishi alohida diqqatga sazovor. Ushbu marosim o‘zbek nikoh to‘yi tizimida keng tarqalgan bo‘lib, turli hududlarda “yuz ochdi”, “yuz ko‘rsatar”, “bet ochar”, “ro‘kushon” kabi nomlar bilan ma’lum.

Kelinning yuziga yopilgan ro‘molning yosh bola tomonidan ochilishida bir nechta ramziy qatlam mavjud. Birinchidan, kelinning yangi xonadonga ochiq tarzda kirib kelishi ifodalansa, ikkinchidan, yosh bola ishtirokida uning yuzining ochilishi kelinning kelajakda serfarzand bo‘lishi haqidagi magik tilakni ifodalaydi.

Ayniqsa, yuz ochishda meva daraxti shoxidan foydalanilishi tasodifiy emas. An’anaviy xalq qarashlarida meva daraxti serhosillik, ko‘payish, baraka va hayot davomiyligining ramzi hisoblangan. Shu sababli uning shoxi orqali kelinning yuzini ochishda “serfarzandlik”, “serhosillik” xususiyatini kelinga o‘tkazishga qaratilgan magik tasavvur mavjud.

Qizig‘i shundaki, aynan shunday semantika “beshik to‘yi”da ham kuzatiladi. Beshikning tut, jiyda, o‘rik kabi meva daraxtlaridan tayyorlanishi bolaga daraxtning serhosillik xususiyati o‘tishi haqidagi qadimiy tasavvur bilan bog‘langan.

Demak, tug‘ilish va nikoh marosimlarida meva daraxti - ko‘payish va barakaning universal ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Kuyov chiqdi” marosimining eng muhim komponentlaridan biri «un elash» udumidir. Marosim davomida qaynona kelinga supra sovg‘a qiladi, kelin unni elab, qo‘li bilan uni g‘ijimlab oladi. Bu harakat “qo‘li doimo unda bo‘lsin”, “ro‘zg‘ori barakali va qutli bo‘lsin” degan niyatni ifodalaydi.

Unning marosimiy semantikasi o‘zbek xalqining boshqa oilaviy marosimlarida ham kuzatiladi. Masalan, “yuz ochdi” marosimidagi “supra soldi” odatida qaynona supradagi undan bir hovuch olib kelinning qo‘liga to‘kadi, kelin esa uni qayta supraga soladi. Bu harakat uch marta takrorlanishi mumkin.

Bu yerda unning oqlik, poklik, yorug‘lik va baraka ma’nolari oldinga chiqadi.

“Un elash”da esa mazkur semantika yanada kuchayadi: kelinning qo‘li unga kiritilishi uning mehnati, ro‘zg‘or yuritishi va rizq yaratish funksiyasi bilan bog‘lanadi.

Shunday qilib, supra va un marosimda oddiy maishiy buyum yoki oziq-ovqat sifatida emas, balki oilaning rizq-ro‘zi, farovonligi va barakasini ta’minlovchi ramziy vosita sifatida ishtirok etadi.

“Kuyov chiqdi” marosimida qaynonaning kelinni o‘choq boshiga olib borishi va qozonga uch marta yog‘ quydirishi ham muhim marosimiy harakatlardan biridir.

O‘choq o‘zbek xalqining an’anaviy madaniyatida faqat ovqat tayyorlanadigan joy emas. U xonadonning hayoti, davomiyligi, issiqligi, barakasi va oilaviy birligi bilan bog‘liq ramziy markazdir.

Shuning uchun kelinning o‘choq boshiga olib borilishi uning yangi xonadonning ichki hayotiga kirishini anglatadi. Kelinning o‘choq bilan tanishtirilishi orqali u nafaqat kelin, balki xonadonning ro‘zg‘orini yurituvchi a’zosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Qozonga yog‘ quyish esa ro‘zg‘orda taom, rizq va farovonlik doimiy bo‘lishi haqidagi tilakning marosimiy ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Bu yerda o‘choq - xonadon, qozon - oilaviy hayot, yog‘ - to‘kinlik va baraka ramzlarini ifodalaydi.

Udunda harakatning uch marta takrorlanishi ham e’tiborli. O‘zbek marosim folklorida uch raqami ko‘p hollarda marosimiy harakatni mustahkamlovchi va uning magik ta’sirini kuchaytiruvchi element sifatida uchraydi.

Qo‘qon oilaviy marosimlarini tahlil qilganda ularda ishlatiladigan predmetlar alohida semantik tizim hosil qilishini ko‘rish mumkin.

Bola tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlarda paxta, tanga, un, chiroq, non, pichoq, oyna kabi predmetlar ishlatilgan bo‘lsa, nikoh marosimlarida ham non, un, supra, meva daraxti shoxi, yog‘, gilam kabi predmetlar muhim vazifani bajaradi.

Bu predmetlarning aksariyatining umumiy xususiyati shundaki, ular moddiy buyumdan marosimiy ramzga aylanadi.

Yuqorida keltirilgan materiallar asosida Qo‘qon oilaviy marosimlarida tug‘ilish va nikoh marosimlari o‘rtasidagi semantik mushtaraklikni ham ko‘rish mumkin.

Homiladorlik davrida bajariladigan ko‘plab irim-sirimlarning asosiy maqsadi ona va homilani xavf-xatardan asrash bo‘lgan. Paxtadan pillik tayyorlash, chiroq yoqish, duo-fotiha qilish, sermeva daraxt tagiga kul ko‘mish kabi udumlarda himoya, poklanish, ko‘payish va baraka motivlari mujassamlashgan.

Beshik to‘yida esa bolaning kelajagi bilan bog‘liq ezgu niyatlar - umri uzoq, rizqi baland, abjir, hunarmand va sog‘lom bo‘lishi haqidagi tilaklar turli predmetlar orqali ifodalangan.

Nikoh marosimlarida ham xuddi shu semantik model saqlanadi: kelin-kuyovning qo‘sha qarishi, serfarzand bo‘lishi, ro‘zg‘orining butun va barakali bo‘lishi tilab, non, un, meva daraxti, supra, o‘choq, qozon va yog‘ kabi ramzlardan foydalaniladi.

Demak, inson hayotining turli bosqichlariga oid marosimlarda «himoya - ko‘payish - rizq - baraka - davomiylik» kabi yagona semantik yadro mavjud.

“Kuyov chiqdi” marosimining eng muhim xususiyati uning lokal xarakterga egaligidir. O‘zbek nikoh marosimlarining umumiy tizimi respublika hududida keng tarqalgan bo‘lsa-da, har bir mintaqa va hatto shahar o‘zining mahalliy udumlari bilan ajralib turadi.

Qo‘qon misolida “Kuyov chiqdi” marosimi ana shunday lokal marosimiy model sifatida namoyon bo‘ladi. U umumo‘zbek nikoh marosimlariga xos bo‘lgan “yuz ochdi”, “kelin salom”, sovg‘a berish, supra va un bilan bog‘liq udumlarni o‘zida saqlagan holda, ularni uch kunlik chimildiqdan keyin kuyovning jamoat oldiga chiqishi bilan bir butun marosimiy kompozitsiyaga birlashtiradi.

Shuning uchun uning lokalligi marosim elementlarining mutlaqo boshqa xalq yoki mintaqa madaniyatidan ajralib turishida emas, balki umummilliy marosimiy elementlarni o‘ziga xos vaqt, ketma-ketlik va funksional tizim asosida birlashtirishida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda globallashuv, urbanizatsiya va zamonaviy to‘y madaniyati ta’sirida ayrim marosimiy elementlar o‘zgarib borayotgan bir sharoitda “Kuyov chiqdi” kabi lokal udumlarni yozib olish, ularning ijtimoiy, semantik va ramziy xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish nafaqat etnografiya va folklorshunoslik, balki Qo‘qonning o‘ziga xos madaniy muhitini o‘rganish nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. T:. Fan, 2008
2. Axmedova O. O‘zbek marosim udumlarining etnohududiy xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma. T:. 2021.